



O'RTA OSIYODA IXTISOSLASHGAN BIRINCHI ARXEOLOGIYA MAKTABINING MINTAQA KONCHILIK VA METALLURGIYA TARIXINI O'RGANISHDAGI O'RNI

Mirzayev Komiljon

Qarshi davlat universiteti "Ijtimoiy va gumanitar
fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19438839>

Annotatsiya Mazkur maqolada Toshkent arxeologiya maktabining shakllanishi va uning O'rta Osiyoda konchilik hamda metallurgiya tarixini o'rganishdagi o'rni tahlil qilinadi. M.E. Masson asos solgan ilmiy maktabning o'ziga xos yo'nalishlari (tarixiy topografiya, numizmatika va konchilik ishi) asosida Iloq, Choch, Farg'ona va Shimoliy Baqtriya hududlaridagi konchilik va metall ishlab chiqarish tizimining rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari mintaqaning iqtisodiy va texnologik taraqqiyotini qayta baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyoda birinchi ixtisoslashgan arxeologiya maktabi, konchilik, metallurgiya, Iloq, Axsikent, M.E. Masson, amaliy arxeologiya, tarixiy topografiya.

O'rta Osiyo qadimdan konchilik va metallurgiya rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Bu yerda rangli va qora metallarga boy tabiiy resurslar mavjud bo'lib, ular qadimgi davrlardan boshlab xo'jalik taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. So'nggi yillarda arxeologik tadqiqotlar natijasida ushbu jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Ayniqsa, Toshkent arxeologiya maktabi tomonidan ishlab chiqilgan kompleks yondashuv konchilik va metallurgiya tarixini tizimli ravishda o'rganishga xizmat qildi.

O'rta Osiyoda ixtisoslashgan birinchi arxeologiya maktabi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti arxeologiya kafedrası) XX asrning birinchi yarmida M.E. Masson tomonidan asos solingan ilmiy yo'nalish hisoblanadi. U arxeologiyani faqat tavsifiy fan sifatida emas, balki jamiyatning iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganuvchi kompleks fan sifatida rivojlantirdi. M.E. Masson o'zining 1966-yildagi fundamental maqolasida arxeologiyaning amaliy vazifalari haqida alohida to'xtalib o'tgan. U arxeologiyani nafaqat o'tmishni o'rganish, balki hozirgi xo'jalik qurilishi uchun xizmat qiladigan fan deb hisoblagan. Konchilik va metallurgiya tarixini o'rganishni geologiya, gidrologiya, irrigatsiya va foydali qazilmalar qazib olish bilan bog'liq eng muhim amaliy yo'nalishlardan biri deb atagan (Masson M.E., 1966, 10–11-betlar). Maktabning o'ziga xos yo'nalishlari rasman belgilangan: tarixiy topografiya, numizmatika va konchilik ishi. Bu uch yo'nalish maktabning asosiy ilmiy



yangiliklari sifatida ta'kidlangan (Abdukarimova R., 1989, 101–102-betlar). Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "O'rta Osiyoda metallurgiya ishlab chiqarishi shaharlarning iqtisodiy asosini tashkil etgan muhim omillardan biri bo'lgan" (Buryakov, 1974).

Mazkur maktab 1940-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (keyinchalik Toshkent davlat universiteti) Tarix fakulteti qoshida tashkil etilgan arxeologiya kafedrasi negizida shakllangan. M.E. Masson 1940–1965-yillarda kafedrani boshqargan va maktabning ilmiy asoslarini yaratgan. U arxeologik materiallarni yozma manbalar bilan solishtirish, ishlab chiqarish izlarini aniqlash va ularni tarixiy jarayonlar bilan bog'lash zarurligini asoslab berdi (Masson, 1959).

Aynan shu yondashuv keyinchalik konchilik va metallurgiya tarixini o'rganishda asosiy metodologiyaga aylandi. Maktab a'zolari bu yo'nalishni amalda rivojlantirish uchun YUTAKE (Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi), Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi va boshqa ko'plab ekspeditsiyalarda faol ishtirok etdilar. Natijada qadimiy konlar, metallurgiya markazlari, temir va mis eritish ustaxonalarini tizimli o'rganish imkoniyati yaratildi.

Kafedra bitiruvchilari orasida konchilik va metallurgiya mavzusida bir necha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan bo'lib, bu ishlar maktabning ushbu yo'nalishdagi ilmiy salmog'ini yaqqol ko'rsatadi.

B.A. Litvinskiy Zarafshon havzasida maxsus razvedka ishlari olib borib, ushbu hududda metallar qazib olish imkoniyatlari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plagan. V.M. Masson tadqiqotlarida Janubiy Turkmaniston va O'zbekiston hududidagi ilk dehqonchilik madaniyatlarida mis va bronzadan qurollar yasash hamda metallni quyish usullari tahlil qilingan. Bu O'rta Osiyoda metallurgiya eng qadimgi bosqichlarini yoritib bergan.

Eng muhim tadqiqotlar qatorida Yu.F. Buryakovning (1956-yil bitiruvchisi) 1966-yilda himoya qilgan «Из прошлого горного дела и металлургии средневекового района (к истории горного дела и металлургии средневекового Илака)» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini ko'rsatish mumkin. U Iloq (Angren-Chatqol) mintaqasidagi qadimiy oltin va kumush konlarini tarixiy-topografik usulda chuqur tadqiq etgan. Tadqiqot natijasida Iloq o'rta asrlarda Markaziy Osiyoning yirik kumush ishlab chiqarish markazlaridan biri bo'lgani aniqlangan. Arxeologik qazishmalar davomida yer osti konlari, shaxtalar, rudani maydalash va saralash izlari, eritish pechlari va katta hajmdagi shlak qatlamlari topilgan (Buryakov, 1974).



E.B. Pruger 1971-yilda "O'rta Osiyoda konchilik ishi tarixiga doir" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U firuza qazib olish markazlarini aniqlagan va geologik ishlarni olib borish bo'yicha tavsiyalar bergan. Shuningdek, u Choch va Iloq viloyatlarida oltin qazib olish sanoatining rivojlanish dinamikasini o'rgangan hamda Shimoliy Iloqda oltin qazib olinadigan 13 ta konni aniqlab, ularning dastlabki ishlanish davri miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmi va milodiy birinchi asrlarga to'g'ri kelishini isbotlagan.

O.A. Papaxristu (1977-yil bitiruvchisi) 1985-yildagi nomzodlik dissertatsiyasida «Черная металлургия Северной Ферганы (по материалам археологического исследования городища Ахсикет IX – начала XIII вв.)» mavzusini o'rgangan. Tadqiqot natijasida Axsikent nafaqat siyosiy, balki yirik metallurgiya markazi sifatida faoliyat yuritgani isbotlangan (Papaxristu, 1983).

Toshkent arxeologiya maktabining konchilik va metallurgiya tarixini o'rganishdagi xizmatlari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- Tarixiy-topografik tadqiqotlar orqali qadimiy konlar va metallurgiya ustaxonalarini aniqlash hamda xaritalashtirish.

- Arxeologik qazishmalarda konchilik obyektlarini (Angren, Farg'ona, Iloq, Kesh) to'liq o'rganish.

- Amaliy vazifalarni hal etish – qadimiy konchilik tajribasini zamonaviy geologiya va sanoat rivojiga tatbiq etish.

Kafedra bitiruvchilari o'z tadqiqotlarini faqat O'zbekiston hududi bilan cheklab qolmaganlar. G.A. Pugachenkova va E.V. Rtveladze boshchiligidagi ekspeditsiyalar Shimoliy Baqtriyada, V.I. Sarianidi esa Afg'oniston hududida qadimgi metallurgiya izlarini aniqlagan. Natijada metallurgiya jarayonlarining ilmiy rekonstruksiyasi amalga oshirildi: eritish pechlarining tuzilishi, havo tortish tizimi, yoqilg'i turlari va metall ajratib olish texnologiyalari qayta tiklandi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maktab O'rta Osiyoda konchilik va metallurgiya tarixini o'rganishda muhim va o'ziga xos o'rin egallaydi. Maktabning uchta asosiy ilmiy yo'nalishi ichida konchilik ishi M.E. Massonning amaliy vazifalar haqidagi qarashlari asosida rivojlantirilgan. Yu.F. Buryakov, E.B. Pruger va O.A. Papaxristu kabi olimlarning dissertatsiyalari maktabning bu sohadagi ilmiy salmog'ini yaqqol isbotlaydi. Natijada konchilik markazlari aniqlandi, metall ishlab chiqarish jarayonlari tiklandi va mintaqaning iqtisodiy taraqqiyoti ilmiy asosda yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdugarimova R. Ташкентская археологическая школа и развитие археологии Средней Азии. Дисс. ... к.и.н. – Ленинград, 1989.



POLAND

CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

2. Masson M.E. Среднеазиатская археологическая школа ТашГУ // Археология Средней Азии. VII. Труды ТашГУ, вып. 295. – Ташкент, 1966.
3. Masson M.E. Археология Средней Азии. – Ташкент, 1959.
4. Вуяков Ю.Ф. Средневековый Илак. – Ташкент, 1974.
5. Рахристу О.А. Ахсикет и его ремесло. – Ташкент, 1983.
6. Ругаченкова Г.А. Искусство Бактрии. – Москва, 1979.
7. Ртвеладзе Е.В. Древние города Средней Азии. – Ташкент, 1985.
8. Сарияниди В.И. Бактрия и Маргиана. – Москва, 1976.

